XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-avgust VI-64-104-3-52-K/24 Paxtakor tumani

Paxtakor tumanining Arnasoy, Do‘stlik, Zarbdor, Zafarobod, Sh.Rashidov tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida” Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Paxtakor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Paxtakor tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha hududiy komissiyasining “Paxtakor tumanining Arnasoy, Do‘stlik, Zarbdor, Zafarobod, Sh.Rashidov tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

- Paxtakor tumanining Arnasoy, Do‘stlik, Zarbdor, Zafarobod, Sh.Rashidov tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq;

- Paxtakor tumanining Arnasoy, Do‘stlik, Zarbdor, Zafarobod, Sh.Rashidov hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashidan so‘ralsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (R.Qurbonov)ga mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining o‘rinbosari O.Amanov zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi  ASHUROV ASILBEK RAXMONOVICH

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2024-yil 5-avgustdagi
VI-64-104-3-52-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Paxtakor tumanining Arnasoy, Do‘stlik, Zarbdor, Zafarobod, Sh.Rashidov tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining

TAVSIFI

“ __ ” _____ 2024-yil. Paxtakor tumani

Paxtakor tumani, Do‘stlik tumani va Arnasoy tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1–nuqta deb qabul qilindi. WGS-84 koordinatalar tizimda, *(shimoliy kenglik 40°29'31,883", sharqiy uzunlik 67°56'33,429").*

A dan B gacha Do‘stlik tumani yerlari bilan 1– 13- nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4256 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yidagi 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'49,551", sharqiy uzunlik 67°59'32,269").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 934 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 3-nuqtaga tutishadi. *(shimoliy kenglik 40°30'16,916", sharqiy uzunlik 67°59'49,195").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovur va avtomobil yo‘lini 112 metr masofada kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'15,474", sharqiy uzunlik 67°59'53,571").*

4-nuqtadan chegara chizig‘iavtomobil yo‘lidan zovurga tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2824 metr masofani o‘tib, lotokka tutashadi, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda lotokning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan 60 metr masofani o‘tib avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 63 metr masofani o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 81 metr masofada avtomobil va temir yo‘lni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutishadi. *(shimoliy kenglik 40°29'50,049", sharqiy uzunlik 68°01'54,935").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2714 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'25,229", sharqiy uzunlik 68°01'26,023").*

6-nuqtadan chegara chizig‘iavtomobil yo‘lini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan

4418 metr masofada zovur bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'07,605", sharqiy uzunlik 68°00'36,693").*

7-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 4754 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'42,265", sharqiy uzunlik 68°03'24,582").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali kanalni kesib o‘tib, zovurga tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2299 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'55,169", sharqiy uzunlik 68°03'44,224").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2895 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'42,314", sharqiy uzunlik 68°05'45,772").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali zovurni kesib o‘tib, zovurga tutashadi va sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1878 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'33,908", sharqiy uzunlik 68°07'04,671").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali zovurni kesib o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2058 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'27,306", sharqiy uzunlik 68°06'59,608").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 4968 metr masofani o‘tadi, keyin quruq chegara chizig‘i orqali o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 182 metr masofada kanalni kesib o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 36 metr masofada M-39 avtomobil yo‘lini kesib Paxtakor, Do‘stlik tumanlari va Sirdaryo viloyati chegara chiziqlari kesishgan joy, M39 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'22,516", sharqiy uzunlik 68°09'26,591").*

B dan D gacha Sirdaryo viloyati Sardoba tumani yerlari bilan 13– 15-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

13-nuqtadan chegara chizig‘i M39 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 8154 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'05,838", sharqiy uzunlik 68°05'35,933").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i M39 avtomobil yo‘lidan 18-Janubiy taqsimlagich kanaliga tutashadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimga qarshi chap tomoni bilan 2382 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 4374 metr masofada Janubiy Mirzacho‘l kanalini kesib o‘tib, Paxtakor va Zarbdor tumanlari va Sirdaryo viloyati chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'06,818", sharqiy uzunlik 68°08'06,784").*

D dan E gacha Zarbdor tumani yerlari bilan 15– 25- nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

15-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 70 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yidagi 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'6,062", sharqiy uzunlik 68°08'03,982").*

16-nuqtadan chegara chizig‘iavtomobil yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi, yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2360 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'35,894", sharqiy uzunlik 68°06'32,267").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 3966 metr, masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'27,353", sharqiy uzunlik 68°03'45,013").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2108 metr, masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'11,141", sharqiy uzunlik 68°02'37,263").*

19-nuqtadan chegara chizig‘idala tuproq yo‘lidan to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali Jizzax bosh zovurini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimga qarshi chap tomoni bilan 547 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'58,068", sharqiy uzunlik 68°02'21,664").*

20-nuqtadan chegara chizigi janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 71 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1575 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°15'17,400", sharqiy uzunlik 68°01'44,441").*

21-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1207 metr masofada zovurni kesib o‘tib, dala tuproq yo‘l bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°14'39,706", sharqiy uzunlik 68°01'35,644").*

22-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1119 metr masofani bosib o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'5,830", sharqiy uzunlik 68°01'19,987").*

23-nuqtadan chegara chizig‘iavtomobil yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1831 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'11,909", sharqiy uzunlik 68°00'49,361").*

24-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1530 metr keyin umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1779 metr masofani o‘tib, Paxtakor, Zarbdor, va Sharof Rashidov tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo‘li bo‘yidagi 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'43,440", sharqiy uzunlik 67°59'35,285").*

E dan F gacha Sharof Rashidov tumani yerlari bilan 25– 34 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

25-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimoliy tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 941 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'52,840", sharqiy uzunlik 67°58'57,461").*

26-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 319 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 759 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘l bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'23,756", sharqiy uzunlik 67°59'30,961").*

27-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining avval sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 44 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 200 metr masofada M39 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 28-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°12'28,259", sharqiy uzunlik 67°58'55,809").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan dala tuproq yo‘liga tutashadi keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 783 metr, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 76 metr masofada kanalni kesib o‘tib, zovur bo‘yidagi 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'34,678", sharqiy uzunlik 67°58'23,895").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1566 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'48,217", sharqiy uzunlik 67°57'21,933").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali zovurni kesib o‘tib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 395 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 1269 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 346 metr masofani o‘tib, 4R38 avtomobil yo‘li ko‘prigiga tutashadi va avtomobil yo‘li ko‘prigi orqali sharqiy shimoliy sharqiy yo‘nalishda 31 metr masofada zovurni kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'47,759", sharqiy uzunlik 67°56'57,979").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali 4R38 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 969 metr masofada temir yo‘lni kesib o‘tib, 4R35 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'57,157", sharqiy uzunlik 67°56'19,252").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i 4R35 avtomobil yo‘li orqali kanalni kesib o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 7394 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°17'48,732", sharqiy uzunlik 67°57'39,938").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i4R35 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, Janubiy Mirzacho‘l kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 589 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1175 metr masofani o‘tib, Paxtakor, Sharof Rashidov va Zafarobod tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, yo‘l bo‘yidagi 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°17'54,132", sharqiy uzunlik 67°56'25,695").*

F dan G gacha Zafarobod tumani yerlari bilan 34– 43- nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

34-nuqtadan chegara chizig‘i Janubiy Mirzacho‘l kanalini kesib o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 95 metr masofada lotokga tutashadi va lotokning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan avval sharqiy yo‘nalishda 86 metr keyin shimoliy yo‘nalishda 255 metr masofani o‘tib, so‘ng zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 302 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°18'14,709", sharqiy uzunlik 67°56'30,769").*

35-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 725 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovurga tutashadi, so‘ng zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 2221 metr masofada zovurni va avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'49,367", sharqiy uzunlik 67°56'30,500").*

36-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1039 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'59,098", sharqiy uzunlik 67°55'48,378").*

37-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali kanalni kesib o‘tib, kanalga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1002 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yidagi 38-nuqtagatutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20'30,249", sharqiy uzunlik 67°56'0,081").*

38-nuqtadan chegara chizig‘i kanaldan lotokka o‘tadi va lotokning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3274 metr masofani o‘tib, lotok bo‘yidagi 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'11,898", sharqiy uzunlik 67°56'39,672").*

39-nuqtadan chegara chizig‘i lotokdan zovurga tutashadi zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2673 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'35,054", sharqiy uzunlik 67°57'08,773").*

40-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiyyo‘nalishda 3336 metr masofada zovurni kesib o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'15,127", sharqiy uzunlik 67°56'18,175").*

41-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3532 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'0,696", sharqiy uzunlik 67°55'22,198").*

42-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 518 metr masofada zovurni kesib o‘tib, Zafarobod, Arnasoy tumani va Paxtakor tumani chegara chiziqlari kesishgan joy, zovur bo‘yidagi 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'10,128", sharqiy uzunlik 67°55'04,112").*

G dan A gacha Arnasoy tumani yerlari bilan 43– 1- nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

43-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 52 metr masofani o‘tadi va dala tuproq yo‘liga tutashadi keyin yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 698 metr masofani


o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'23,444", sharqiy uzunlik 67°55'26,869").*

44-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 4262 metr masofani o‘tib, Paxtakor tumani, Do‘stlik va Arnasoy tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1–nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'31,883", sharqiy uzunlik 67°56'33,429").*

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2024-yil 5-avgustdagi
VI-64-104-3-52-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jizzax viloyati Paxtakor tumani ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha *Do'stlik tumani yerlari*
B dan D gacha *Sirdaryo viloyati yerlari*
D dan E gacha *Zarbdor tumani yerlari*
E dan F gacha *Sharof Rashidov tumani yerlari*
F dan G gacha *Zafarobod tumani yerlari*
G dan A gacha *Arnasoy tumani yerlari*

Shartli belgilar

1 Chegaraning burilish nuqtalari
Viloyatlar chegarasi
Tumanlar chegarasi